

UMAR XAYYOMNING "NAVRO‘ZNOMA" RISOLASINING BADDIY TAHLILI

Temirova Munira Ulug‘bek qizi

Terniz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich talabasi

Annotasiya. *Ushbu maqolada buyuk matematik, fizik, astronom, mutafakkir shoir G‘iyosiddin Abdulfatx Ibrohim Xayyomiyning hayoti va ijod yo‘li hamda, uning "Naro‘znoma" asarining baddiy va ijtimoiy g‘oyalari, milliy bayramimiz bo‘lgan Navro‘z bayramining kelib chiqish tarixi, asardagi hikoyatlarning tarbiyaviy va foydali jihatlari keltirib o‘tilgan. Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan dastlabki yozma baddiyy asarlar fors-tojik adabiyoti namoyondalari asarlari haqida ham ma‘lumotlar berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xayyom, "Navro‘znoma", "Saddi Iskandariy", Firdavsiy, "Shohnoma", "Umar Xayyom".*

Annotatsion. In this article, the life and creative path of the great mathematician, physicist, astronomer, and thinker poet Ghiyosiddin Abdulfath Ibrahim Khayyomi, as well as the artistic and social ideas of his work "Naroznama", the history of the origin of Navruz holiday, which is our national holiday, is in the work the educational and useful aspects of the stories are mentioned. Information is also given about the works of representatives of the Persian-Tajik literature, the first written works dedicated to Navroz holiday.

Key words. Umar Khayyam, "Navroznama", "Saddi Iskandari", Firdawsi, "Shahnama", "Umar Khayyam"

Buyuk faylasuf, matematik, astronom, mutafakkir, shoir G‘iyosiddin Abdulfatx Umar Ibrohim Xayyomiy Nishopuriy 1048-yilda Eronning Nishopur shahrida tavallud topgan. Nishopurda boshlang‘ich ta‘limni olgach, Balx, Buxoro, Samarqand shaharlarida tahsil olgan. Malikshoh va Nizommulmuluk da‘vati bilan 1074-yil Isfahonda rasadxona qurdirgan va unga rahbarlik qilgan. Yulduzlar jadvali, 1079-yilda yangi isloh qilingan taqvim (kalendar) tuzgan. Bu taqvim Yevropada va undan 500 yil keyin joriy qilingan Gregoriy kalendaridan ham aniqroq. Yozuvchi Nabi Jaloliddin o‘zining "Umar Xayyom" romanida bunga to‘liq izoh bergan. Ya‘ni Gregoriy taqvimiga ko‘ra har 3333-yilda bir ortiqcha kun yuzaga keladi. Xayyom taqvimida esa bir kunlik farq 5000-yilda sodir bo‘ladi. Umar Xayyomning huddi shu mavzularda "Risolatul -kavn vat taklif" ("Koinot va uning vazifalari"), "Risola fil-vujud" ("Borliq haqidagi risola") kabi asarlari ham mashhurdir. Umar Xayyomning dunyoga mashhur qilgan uning ruboiylaridir. Umar Xayyom shoir bo‘lmagan lekin hayot haqida ba‘zi mulohazalarini 4qatorlik she‘r qilib qog‘ozga tushurib qo‘yavergan. Umar Xayyom o‘zini sira ham shoir hisoblamagan. Ruboiylarini ilmiy izlanishlardan charchagan paytida turli daftarlarning hoshiyasida bitgan. Xayyomning yana bir mashhur asari "Navro‘znoma" risolasidir.

"Navro'znoma" asari juda katta tarixiy, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy-didaktek asardir. Ushbu asarda muallif Sharq xalqlarining qadimiy udumlarini, xususan Naro'zning xalq bayrami sifatida udum bo'lishi tarixini batafsil yoritgan va u bilan bog'liq naql-u rivoyatlarni keltirgan. "Navro'znoma" xalq jonli tiliga yaqin bir ibora ifodalarga yozilgani uchun yengil o'qiladi. Asar XII asrning forsiy tildagi nasrning eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Umar Xayyomning "Navro'znoma" risolasi uning tarixni, etnografiyani, xalq urf-odatlarini juda mukammal bilganligidan dalolat beradi. Biz bu risolada Navro'z bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p odatlar, afsonalar va hodisalarga duch kelamiz. Hozirgi zamonda o'tayotgan Navro'z bayrami bilan Umar Xayyom tasvir qilayotgan Navro'z bayrami orasida katta farqlar borligidan hayron qolamiz. Bunga hayron qolishimizning sabablaridan biri shuki, hozirgi zamonda qilichbozlik, tirandozlik, chavondozlik kabi xalq marosimlari deyarli yo'q, ammo risola bu haqida o'ylab ko'rishga da'vat etadi.

Asar boshlanishi o'sha davrlarda yozilgan Alisher Navoiyning "Xamsa" asari, Yusuf Xos hojibning "Qutadg'u bo'ling" va boshqa ko'plab asarlar singari Allohga hamd va uning buyukligini tavsiflab, va uning payg'ambariga ta'zimlar bilan boshlanadi. Asarda aytilishicha bayramning kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi, juda ko'plab shohlar va ularning avlodlari haqida so'zlab o'tib, Navro'z bayramining kelib chiqishi ham huddi shunday uzoq tarixga borib taqalishini o'quvchiga uqtiradi. Navro'z joriy qilinish sababini Umar Xayyom shunday yozadi: "Oftobning ikki aylanishi mavjud ulardan biri oftob har 365 kunda kecha va kunduzning to'rtidan birida Xamal burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytda yana qaytadi va har yili bu davr kamayadi" deb yozgan. Birinchi bo'lib bu kunni Jamshid Navro'z deb ataydi va bu kunni bayram deb e'lon qiladi. Birinchi oy va yillarga nom bergan podshoh Ajam ya'ni fors podshohi Kayumars bo'ladi va yil hisobini xamal, ya'ni kun bilan tunning teng bo'lgan kundan hisoblanishini aytadi. Asarda Izid ilohiy hudo nomi ham mavjud bo'lib, u 12ta farishtani yaratganini bu farishtalarni to'rttadan uch qismga bo'lib, birinchi to'rttasini axramanlarni qo'riqlash uchun osmonga yuboradi, to'rttasini axramanlarning Kof tog'idan o'tkazmaslik uchun jahonning to'rt burchagida yubordi, yana to'rtta farishtaga esa osmon va yerda yurib odamlardan axramanlarni haydab turishni buyuradi. Asarda yozilishicha, Izid taola nurdan oftobni yaratib osmon- u yerni parvarish qilgan. Asarda juda ko'plab podshohlarning hayoti tasvirlangan. Podshohlar Navro'z kuni katta bayram o'tkazib, hamma shod va hursand bo'lishi kerakligi, kimki Navro'z kuni quvonib bayram qilsa, keyingi Navro'zgacha shod-u birdamlikda yashaydi, -deyilgan. Bu fikr hozirga qadar insonlar qalbida saqlanib qolgan. Ajam shohi Kayumars yilning 12-oyga bo'lib ularga nom qo'ygan va har bir oy nomining kelib chiqishi tavsiflab berilgan.

Umar Xayyom buyuk shoir tarixchi etnograf bo'lib qolmay, buyuk kashfiyotchi desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni asardagi ushbu hikoya tahlilidan bilib olamiz. "Oltin va uning to'g'risidagi nimalarni bilish kerakligi haqida "hikoyasida shunday deyilgan. Oltin bu quyosh iksiri, kumush oy iksiridir. Kondan birinchi bo'lib Jamshid oltin qazib olgan. Jamshid undan bir dumaloq narsa yasab, unga quyosh tasvirini tushiradi va osmon qiroli quyosh bo'lsa, oltin

insonlar qurolidir deb aytilgan.Oltinning xislatlari:insonga quvonch, qalbg'a nur ,yuzning xusniga husn qo'shadi.Yana bir yaxshi tomoni shundaki agar chaqaloqni oltin ko'zadagi sut bilan boqsa u shirinsuhan,insonlarda doimo yaxshi muomilada bo'ladi va mard qo'rmas botir bo'lib voyaga yetadi .Buning isboti sifatida bir hikoya keltirib o'tilgan.Bir No'shinravon degan podsho soch oldirish uchun sartoroshni chaqirtiradi.Shunda sartorosh o'zga shijoat bilan siz menga qizingizni berishingiz lozim deb do'q uradi .Keyin podsho uni qo'lidagi ustarasidan qo'rqib rozi bo'ladi, keyin sartorosh bu gaplarni o'zi aytmaganligini aytadi.Podsho bu voqeani vaziriga so'zlab berganida, vaziri buni boshqa sababi borligini, sartarosh turgan yerda oltin borligini aytadi.Sartorosh oltinning kuchi bilan o'zini jasur shijoatli his qilgan.

Asarda uzuk va uning xislatlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Uzuk insonga kuch va o'ziga ishonch tuyg'usini oshirishga xizmat qiladi. Podshohlarning uzuk taqilmagan barmog'i,bayroqsiz saflangan odmalarga o'xshatadi. Podshohlar barmog'idagi uzuk barkamol oliyjanobligidan, qarorlari, fikrlari to'g'riligidan dalolat beradi, kimda kim uzukda bo'lsa, muhri bo'ladi.Muhri bo'lmagan nomani hamma o'qishi mumkin.Muhrli bo'lsa faqat yuborilgan insongina o'qiydi. Bundan tashqari uzukdan fol ochish va bashorat qilishda keng foydalanilganligi aytib o'tilgan. Asarda bir hikoyat keltiriladi.Hikoyaning mazmuni shunday edi.Iskandar Rumiylar tushida butun dunyo uzuk bo'lib barmog'ida bo'ladi, ammo uzukning toshi bo'lmaydi.Bu haqida Aristoteldan so'raganda u aytadiki, sen jahonni olasan lekin undan yetarli darajada foydalana olmaysan,chunki uzuk mamlakat timsoli, toshi uning sultonidir.Ushbu hikoyada butun jahonni janglar bilan qo'lga kiritgani bilan, xalq aholi unga bo'ysunishni hohlamaydi,natijada undan foyda ololmaydi.Bu hikoyada uzuk ramziy obraz sifatida keltirilgan.

Asarda qilich va uning foydalari haqida ham qimmatli ma'lumotlarni olamiz.Qilich fazilatlaridan eng afzali payg'ambar alayhissalomga uni fath sifatida berilganidir.U "men shamshir bilan yuborilganman"degan.Tavrotda uni yarash homiysi va qilich sohibi deyilgan."Bahromning qirol haqidagi "kitobida yozilishicha,agar qilich g'ilofidan chiqadigan payt ingrasa bu qon to'kilishiga ishora ,agar qilich o'zi chiqsa bu urush alomati, yalong'och qilichni yetti kunlik bolani oldiga qo'ysa,u jasur va qo'rmas bo'lib voyaga yetadi.

Umar Xayyom ilmda ham ijodda ham o'zini Abu Ali ibn Sinoning sadoqatli shogirdi hisoblagan .Ibn Sino asarlarini tushunmagan insonlar ularni sharhlashni undan so'rganlar.U ustozining bir qator asarlarini arabchadan forschaga tarjima qilib izohlab bergan va uning g'oya va qarashlarini davom ettirgan va targ'ib qilgan.Umar Xayyomni tabib sifatida "Navro'znoma"asaridan bilib olsak ham bo'ladi.Arpa va uning haqida nimalarni bilish kerak bobida arpaning foydalari haqida shu paytgacha ya'ni olingacha hech kim buni aytib o'tmagani,uning foydali tomonlari haqida biz o'zimizga kerakli xulosalarni olsak bo'ladi.Arpa hamma narsadan tez pishishi bilan juda mashhurligi, bundan tashqasi uni yeganda qon hech qachon buzilmasligi,24ta kasalga da'vo sifatida qo'lanilishi haqida ham aytib o'tilgan.U moyak xaltasi, bosh, ko'krak, jigar ,qorin kasalliklariga dori sifatida foydalaniladi.Arpa shunchalik e'zozli ne'mat ekanki, hatto bir rivoyatda Rasul alayhissalom "Nonlar ichida eng yaxshi non u

arpa noni, kimki unga qanoat qilsa u uni to'ydiradi, chunki mening nonim barcha payg'mabarlar nodir" deyilgan. Risolada may haqida ham qimmatli ma'lumot berilgan. Bu yerda hozirgi kundagi alkagol ichimligi haqida emas, balki tabiiy uzum mevasidan bo'lgan tabiiy may haqida qiziqarli va uning foydalari haqida yozilgan. May g'amdan forig' qiladi, qalbni quvontiradi, semirtiradi, terini tozalab oqartiradi. Ba'zi ziyrak odamlar mayni "haqiqiy insoniylik mahagi" deb atashgan. Bundan tashqari asarda mayning har hil turlari va ularning foydali haqida aytib o'tilgan. Risolaning keyingi qismlari turli xil mavzularda otlar, qalam va uning xosiyati, o'q va yoy hamda ular haqida nimalar bilish haqida hikoya qilinadi.

Navro'z milliy bayramimiz haqida yetuk mutaffakir, ulug' zot Alisher Navoiy ijodida ham uchratamiz. Jumladan "Tarixi mulki Ajam", "Mahbub ul qulub", "Munshoat" kabi nasriy asarlarida ham Navro'z bilan fikr mulohazalar, ta'rif- u tavsiflari, obrazli iboralar, betakror qofiyalarga duch kelamiz. Navoiyning nasrda yozgan ma'lumotlari Firdavsiyning "Shohnomasi" da bitgan quyidagi baytlarni yodga soladi.

Yil boshi Xurmuzu edi farvardin, Dilda na g'am qoldi,

Na adovatkin, Bu baxtiyor kunni o'shandan buyon.

Shohlardan yodgor deb bilurlar hamon.

Hazrat Alisher Navoiy o'z asarlarida bahor fasli bilan bog'liq tasvirlarni ham maroq bilan yozar ekan, Navro'zni ham tilga olgan va buning yorqin misoli va buning yorqin misoli "Layli va Majnun" dostonida bitgan doston bahor vasfi nomli bobdir. Uni qaysidir ma'noda ulug' shoirning bahor va Navro'z haqidagi qarashlari deyish mumkin.

Bu damki esib nasimi Navro'z, Gul atrini qildi majlis afro'z.

Bog' o'ldi bahordin gulafshon, Sunbul bu gul uzra kokulafshon.

Bu faslda azmi gulshan etgay, Bo'ston haramini maskan etgay.

"Saddi Iskandariy" dostonining 19-bobida shoir Navro'zni butun borliqni birdek saxiylik bilan yashnatuvchi bahor fasli haqida hamda tog'-u toshga yog'uvchi bahorning serob qut yong'irlari va butun xalq umid-u shukrona bilan orziqib kutadigan yilboshi bayrami ma'nolarida san'atkorona qo'llagan barchaning tenglidir degan ijtimoiy fikrlariga tamsil qilib keltirgan va ulug' shoir Navro'z so'zini qofiyaga chiqarib "navro'zdek", "jahonso'zdek" kabi qofiyalar Bunday go'zal o'xshatish va betakror poetik mahorat faqat Navoiy ijodida uchraydi. Yana bir o'rinda Navoiyning go'zal g'azallaridandir. U Navro'z bayrami munosabati bilan hayotsevarlik, yaxshilik, shodlik, quvnoqlik, go'zallik targ'ibiga bag'ishlab yozilgan.

Ushbu asardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, bu "Navro'znoma" risolasi tarixiy faktlarni chiroyli, mazmunli kerakli hikoyatlar bilan o'quvchiga yetkazgan. Asarning o'rni barcha uchun bir xil bo'lib, unda haqiqiy podshohlardan tortib oddiy insongacha tasvirlanib, hayotda eng kerakli va zarur ibratli voqealarni uchratishimiz mumkin. Bu asar menga juda katta ta'surotlar qoldirdi, hamda kerakli bilimlar o'rganishimga sabab bo'ldi. Asar yozilganiga necha yillar bo'lgan bo'lsa ham hanuzgacha o'z mavqeyini yo'qotmagan va bundan keyin ham shunday bo'lishiga ishonaman.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

- 1.Umar Xayyom "Navro‘znoma" kitobi TOSHKENT "MEHNAT" 1990.
- 2.Nasimxon Rahmonov "O‘zbek adabiyoti tarixi" TOSHKENT "Sano-standart" nashriyoti 2017
- 3.Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma" Toshkent "Fan" nashriyoti .